


## Asosiy kapitalga investitsiyalar

(2019-yil yanvar–iyun oylarida)



Olib borilayotgan keng ko`lamli investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi 85,8 trln. so`mdan oshiqroqni tashkil etgan holda o`tgan yilning mos davriga nisbatan keskin o`shish, ya`ni 58,9 % ga o`shish kuzatildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 11,6 % punktga ko`payib, 31,2 %ni yoki 26841,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.

**Markazlashgan moliyalashtirish manbalari**

Respublika byudjeti <b>7055,9</b> mlrd. so`m	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar <b>13737,8</b> mlrd. so`m	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi <b>604,6</b> mlrd. so`m	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi <b>28,7</b> mlrd. so`m	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi <b>5414,3</b> mlrd. so`m
---	--	--	---	--

**Jami asosiy kapitalga  
investitsiyalar****Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari**

Aholi mablag`lari <b>8900,0</b> mlrd. so`m	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari <b>14489,2</b> mlrd. so`m	To`g`ridan- to`g`ri xorijiy investitsiyalar <b>14389,7</b> mlrd. so`m	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar <b>4310,7</b> mlrd. so`m	Korxonalar mablag`i <b>16844,2</b> mlrd. so`m
---	--	---	---	--


Mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 11,6 % punktga kamayib, 68,8 %ni yoki 58933,8 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi salmoqli bo‘ldi – 16844,2 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,7 %. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,4 % yoki 8900,0 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi.

Joriy davrda o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi jadal o‘shirib, 14389,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davridagi jami asosiy kapitaldagi ulushiga nisbatan 5,1 % punktiga ko‘payib, 16,8 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan  
moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashmagan  
moliyalashtirish manbalari**



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 14489,2 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,9 % ini tashkil etib, o`tgan yil mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 8,7 % ga kamaydi), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 13737,8 mlrd. so`m (16,0 % va 8,7 % punktiga ko`payish), boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 4310,7 mlrd. so`m (5,0 % va 3,1 % punktiga ko`payish), Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 5414,3 (6,3 % va 0,2 % punktiga kamayish), Respublika byudjeti 7055,9 mlrd. so`m (8,2 % va 2,6 % puktiga ko`payish), Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 604,6 mlrd. so`m (0,7 %) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 28,7 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar o`shish sur`atlarini moliyalastirish manbalari bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan o`zlastirilgan investitsiyalarda kuzatildi – o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 marta o`shish. Bu Sho`rtan gaz-kimyó majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg`i ishlab chiqarishni tashkil etish, To`raqo`rg`on IESda umumiy quvvati 900 MVt bo`lgan ikki 450 MVt quvvatli bug`gaz qurilmali blokdan iborat yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi, Taxiatoş IESda 230-280 MVt quvvatli ikki bug`gaz qurilmasi qurilishi, Navoiy IESda 450 MVt quvvatli ikkinchi bug`gaz qurilmasini qurish orqali kengaytirish, ammiak va karbamid, azot kislotasi, polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi, Amu-Buxoro irrigatsiyatizimlari reabilitatsiyalash, elektr energiyasi iste`molini hisobga olish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal olib borilayotgani bilan bog`liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo'yicha tarkibi


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>85775,1</b>	<b>158,9</b>	<b>100,0</b>
Respublika byudjeti	7055,9	2,3 m	8,2
<b>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi</b>	<b>604,6</b>	<b>6,0 m</b>	<b>0,7</b>
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	28,7	186,7	0,0
<b>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</b>	<b>5414,3</b>	<b>153,5</b>	<b>6,3</b>
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	13737,8	3,5 m	16,0
<b>Korxonalar mablag'lari</b>	<b>16844,2</b>	<b>99,4</b>	<b>19,7</b>
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	14489,2	124,3	16,9
<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</b>	<b>14389,7</b>	<b>2,3m</b>	<b>16,8</b>
Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	3237,0	3,5m	3,8
<b>Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar</b>	<b>1073,7</b>	<b>9,9m</b>	<b>1,2</b>
Aholi mablag'i	8900,0	120,1	10,4



### Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jami nisbatan % da):							
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	4765,9	12,3	20,7	13,7	41,6	0,7	0,3	4,6	6,1
<b>viloyatlar:</b>									
Andijon	3297,7	13,4	15,7	18,8	40,8	0,7	-	-	10,6
Buxoro	5020,2	7,1	12,1	17,4	50,4	0,8	-	0,7	11,5
Jizzax	3187,9	13,1	11,1	10,7	50,5	2,2	-	2,9	9,5
Qashqadaryo	10355,5	3,7	16,5	6,8	68,7	0,4	-	-	3,9
Navoiy	9955,9	2,2	5,7	5,8	41,0	0,2	-	23,6	21,5
Namangan	5646,4	5,2	15,1	9,4	39,2	0,5	-	18,1	12,5
Samarqand	4613,4	10,3	23,5	21,3	20,3	2,2	-	-	22,4
Surxondaryo	3144,6	10,7	16,7	18,7	34,2	2,0	-	-	17,7
Sirdaryo	2485,1	12,1	16,6	4,2	39,3	1,2	-	1,5	25,1
Toshkent	7994,9	12,7	21,4	9,6	30,8	0,7	-	9,2	15,7
Farg'ona	4552,9	7,2	20,0	15,1	41,2	0,8	-	1,0	14,8
Xorazm	2428,1	13,3	12,3	23,3	24,0	1,2	0,4	7,0	18,5
Toshkent sh.	18082,4	7,5	34,7	5,0	20,2	0,2	-	4,0	28,4

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 2,1 martaga ko'payish Qashqadaryo viloyatida kuzatildi. Bu asosan suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarishini tashkil etish, neft-gaz konlarini o'zlashtirish kabi yirik loyihalarning olib borilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatida yuqori osish surati kuzatilib, otgan yilning mos davriga nisbatan 2 martadan ko'proqni tashkil qildi. Bunday natijani Sirdaryo issiqlik elektr stantsiyasida bosqichma-bosqich energobloklarni modernizatsiya qilish bilan izohlash mumkin.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 199,3 % ni tashkil etishi To'raqo'rg'on tumanida issiqlik elektr stantsiyasi qurilishining davom ettirilayotgani bilan izohlash mumkin.

Buxoro viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan


8.9 % ga kamaydi. Bu albatta o‘tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilishi bo‘yicha investitsiyalarning katta bo‘lgani bilan izohlanadi.

Jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi bo‘yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,1 % o‘zlashtirildi.


Mos ravishda Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich 12,1 va 11,6 %ni tashkil etdi.

Xorazm hamda Sirdaryo viloyatlarida o‘zlashtirilgan investitsiyalarning Respublikada o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi eng kam ulushlar qayd etildi – 2,9 va 2,8 %.

**Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida hududlarning ulushi, % da**



*Asosiy kapitalga investitsiyalarning  
texnologik tarkibi*




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 43650,4 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 50,9 %ni tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo‘yicha 34994.0 mlrd. so‘m (jami investitsiyalarfagi ulushi 40,8 %) va boshqa xarajatlarga 7130,6 mlrd. so‘m (8,3 %) o‘zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Buxoro viloyatida kuzatildi – 56,7 % yoki 2846,0 mlrd. so‘m.

Ushbu ko‘rsatkichning eng past darajasi Namangan viloyatida kuzatilib, 27,7 % ni yoki 1566,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va mos ravishda, ushbu hududda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich – 67,0 % yoki 3784,5 mlrd. so‘m kuzatildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta quollantirish
- Boshqalar

Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo`naltirildi. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 43893,7 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 51,2 %ini tashkil etdi.


Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 25649,2 mlrd. so`mni tashkil etdi va respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 29,9 %ini tashkil etdi. Qolgan 18,9 %, ya`ni 16232,2 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.



Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Qashqadaryo viloyatida kuzatilib, u 82,1 % ni tashkil etdi. Bu suyuqtilgan sintetik yoqilg`i ishlab chiqarishini tashkil etish bo`yicha yangi qurilish ishlari bilan bevosita bog`liq.


Bu ko`rsatkichning eng past darajasi hamon Andijon viloyatida kuzatilmoqda va u 31,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida takror ishlab chiqarish tarkibi**



Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini hamda boshqa soha obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya va texnik-tehnologik jihatidan qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi bo`yicha eng yuqori – 47,8 % ko`rsatkich Farg'ona viloyatida kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 23992,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,0 % o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish 4813,2 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,6 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4585,3 mlrd. so'm (5,3 %)
- metallurgiya sanoati 4148,0 mlrd. so'm (4,8 %);

Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyat turida ham salmoqli investitsiyalar – 12145,0 mlrd. so'm (14,2 %) o'zlashtirildi.

Tog'-kon sanoatida 6313,6 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 7,4 %i o'zlashtirildi. Shundan 3627,3 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 4,2 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo'naltirilgan.

***Xorijiy investitsiya va kreditlar***

mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit			investitsiya	Kafolatlanmagan kredit
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>32438,2</b>	<b>15463,4</b>	<b>16974,8</b>	<b>14389,7</b>	<b>4310,7</b>	<b>1073,7</b>	<b>3237,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1984,3	1116,6	867,7	1108,7	40,7	7,9	32,8
viloyatlar:							
Andijon	1344,5	613,0	731,5	610,0	626,3	3,1	623,2
Buxoro	2530,6	1596,8	933,8	1585,3	571,7	11,4	560,3
Jizzax	1610,9	779,6	831,3	774,3	639,3	5,2	634,1
Qashqadaryo	7112,3	1055,1	6057,2	1011,3	166,3	43,7	122,6
Navoiy	4080,0	581,4	3498,6	581,4	-	-	-
Namangan	2216,1	889,4	1326,7	885,2	188,3	4,2	184,1
Samarqand	938,0	727,7	210,3	707,9	19,8	19,8	-
Surxondaryo	1076,2	848,1	228,2	676,0	172,1	172,1	-
Sirdaryo	977,1	574,6	402,5	559,8	42,2	14,8	27,4
Toshkent	2460,7	2280,5	180,2	2259,4	36,0	21,1	14,9
Farg'ona	1875,4	1676,0	199,4	1598,3	204,4	77,7	126,7
Xorazm	582,3	536,7	45,6	536,7	2,7	0,1	2,6
Toshkent sh.	3649,8	2187,9	1461,8	1495,4	1600,9	692,6	908,3

Joriy davrda 32438,3 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 37,8 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.


Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 15463,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 16974,8 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan joriy davrda 14389,7 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 4310,7 mlrd. so‘m boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 2,9 martani tashkil etdi.

O‘shish sur‘atlarini hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax viloyatida qayd etildi – 11,0 martaga ko‘payish, eng past o‘shish sur‘ati Buxoro viloyatida kuzatildi 89,1 %.

### Xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘shish sur‘atlari (%da)



*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy  
investitsiya va kreditlar tarkibi, % da*



Elektr, gaz bilan ta'minlash 29,7 %

Tog`-kon sanoati 10,3 %



Qayta ishlash sanoati 38,3 %

Axborot va aloqa 1,9 %



Qishloq xo'jaligi 7,1 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya 1,5 %



Qurilish 1,0 %

Tashish va saqlash 2,1 %



Sog`liqni saqlash 1,3 %

Boshqalar 6,8 %



Qayta ishlash sanoati bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 38,3 % yoki 12426,9 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar



o'zlashtirilgan bo'lib, shu jumladan, uning tarkibida yuqori korsatkichlarni boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 11,3 % yoki 3672,3 mlrd. so'm, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 8,9 % yoki 2895,8 mlrd. so'm, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 6,1 % yoki 1993,9 mlrd. so'm

o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi.

Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyat turida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilib, jami 9636,0 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 29,7 %i o'zlashtirildi.

Tog`-kon sanoatida esa u 3343,0 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 10,3 % ni tashkil etdi. Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, Qo'ng'iro't hududida geologik-qidiruv ishlarini olib birish, Xisor investitsiya bloki, Ustyurt hududlarida konlarni o'zlashtirish va uglevodorod qazib olishni tashkillashtirish kabi yirik investitsiya loyihalari bo'yicha katta hajmdagi investitsiyalar o'zlashtirilmoqda.

## **Ob'yektlarni ishga tushirish**


Joriy davrda quyidagi ob'yektlar ishga tushirildi:

- 624,1 mlrd. so'm qiymatli 20 ta neft va gaz quduqlari;
- umumiy quvvati 400 KVt bo'lgan ikki mikro gidroelektr stansiyalar;
- 04-6-10 KVt quvvatli umumiy qiymati qariyb 107 mlrd. so'm bo'lgan 526,5 km. uzunlikdagi elektr tarmoq liniyalari;
- VL–220 Kv quvvatli, umumiy qiymati 50,4 mlrd. so'm bo'lgan 89,4 km. uzunlikdagi elektr uzatish liniyalari;
- umumiy qiymati 34,2 mlrd. so'm bo'lgan temir-yo'l liniyalarini tashqi elektr bilan ta'minlandi;


- 67,9 mlrd. so`m qiymatli 67,8 km uzunlikdagi sug`orish uchun mo`ljallangan magistral kanal;
- umumiy qiymati 116 mlrd. so`m bo`lgan 855 ta uyali aloqa bazaviy stansiyalari;
- bir sutkada 300 tonna xomashyoni qayta ishlaydigan umumiy qiymati 36,9 mlrd. so`m bo`lgan tegirmon va boshqalar.

*Qishloq joylarda:*


Gaz tarmog`i



Suv tarmog`i




Turar-joylar



	Gaz tarmog`i, km	Suv tarmog`i, km	Turar-joylar, soni
O`zbekiston Respublikasi	31,0	994,8	39317
Qoraqalpog`iston Respublikasi	-	191,8	5043
Andijon	-	201,9	2288
Buxoro	3,3	125,4	3562
Jizzax	12,2	132,8	2093
Qashqadaryo	-	25,7	3138
Navoiy	-	13,8	1611
Namangan	1,8	61,9	3327
Samarqand	11,8	99,1	3356
Surxondaryo	-	7,5	3920
Sirdaryo	-	-	755
Toshkent	-	-	4116
Farg`ona	1,9	134	2712
Xorazm	-	-	1691
Toshkent sh.	-	0,9	1705

Gaz tarmoqlari uchun jami 2,1 mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, undan, 2,0 mlrd. so'mi aholi mablag'lari hisobidan, qolgan 0,1 mlrd. so'mi esa boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirildi.

### Suv tarmog'iga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi



Respublika bo'yicha 994,8 km suv tarmoqlari o'tqazilgan bo'lib, jami 371,5 mlrd. so'm investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 119,6 mlrd. so'm respublika byudjeti, 97,5 mlrd. so'm suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi, 10,4 mlrd. so'm aholi mablag'lari, 5,5 mlrd. so'm korxonalar va tashkilotlar mablag'lari, 50,3 mlrd. so'm chet el investitsiyalari va kreditlari hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 88,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Foydalanishga topshirilgan turar-joylar uchun jami 10222,0 mlrd. so‘m yo‘naltirilgan bo‘lib, shundan, Respublika byudjeti hisobidan 62,5 mlrd. so‘m, korxonalar va tashkilotlar o‘z mablag‘lari 15,9 mlrd. so‘m, aholi mablag‘lari 5633,4 mlrd. so‘m hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 4510,2 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi

**Foydalanishga topshirilgan turar-joy va yotoqxonalar qurilishi  
(yangi qurilish va rekonstruksiya)**

	Uylar soni birlik	Umumiy maydoni, ming kv.m	2018-yil yanvar–iyuniga nisbatan, %da
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>39317</b>	<b>6652,0</b>	<b>123,1</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5043	768,9	253,2
Andijon	2288	379,4	111,5
Buxoro	3562	838,8	125,2
Jizzax	2093	354,9	114,1
Qashqadaryo	3138	519,5	109,7
Navoiy	1611	342,2	172,0
Namangan	3327	430,4	102,4
Samarqand	3356	542,1	102,8
Surxondaryo	3920	540,3	114,4
Sirdaryo	755	94,8	379,5
Toshkent	4116	617,2	129,5
Farg‘ona	2712	501,6	111,4
Xorazm	1691	332,9	79,3
Toshkent sh	1705	388,9	128,2

Joriy davrda 6652,0 ming kv.m turar joylar foydalanishga topshirilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 %ni, shundan, 6171,8 ming kv.m yakka tartibda jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 121,9 %ni, namunaviy loyihalar asosida qurilgan va ishga tushirilgan maydon esa 445,8 ming kv.m va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 143,3 %ni tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
boshqarmasi**

Nashr uchun mas‘ul:

**J.Saipov**

Aloqa telefoni:

**(0371) 230-80-56**